

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MILLIY  
QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

---

*Muallif: Usmonova Gullola Halilovna  
Ilmiy rahbar: p.f.f.d (PhD), dotsent F.P.Rajabova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyati, ularning oliy ta'lif muassasalari talabalarini barkamol shaxs sifatida shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, milliy qadriyatlarni rivojlanishning samarali pedagogik-psixologik usullari, ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish yo'llari ko'rib chiqilgan. Talabalarda vatanparvarlik, milliy g'urur, ma'naviy-etika qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy qadriyat, oliy ta'lif, talaba, tarbiya, pedagogika, psixologiya, vatanparvarlik, ma'naviy tarbiya.

Globallashuv sharoitida yoshlarning ongiga turli g'oyalar kirib kelayotgan bir paytda ularning milliy o'zligini, tarixiy xotirasini, qadriyatlarni tizimini asrab-avaylash, mustahkamlash dolzARB masalaga aylangan. Oliy ta'lif muassasalari bu borada muhim o'rin tutadi. Talabalar shaxsini shakllantirishda milliy qadriyatlarni negizida tarbiya berish, ularni ongli, ma'naviy yetuk, vatanparvar inson sifatida voyaga yetkazish pedagog va psixologlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Milliy qadriyatlarni – bu xalqning tarixiy taraqqiyot yo'lida shakllangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan, millat ongini, o'zligini belgilovchi asosiy ijtimoiy-madaniy me'yorlar tizimidir. Bunga urf-odatlar, marosimlar, an'analar, madaniy-tarixiy meros, til, din, san'at, axloqiy me'yorlar, estetik qarashlar, oila qadriyatlari va mehnat madaniyati kabi elementlar kiradi. Ular shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviy shakllanishi va fuqarolik pozitsiyasini aniqlashda bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'lif tizimi bu qadriyatlarni o'rgatish, singdirish va rivojlanishning muhim bosqichi bo'lib, yosh avlodni ma'naviy barkamollikka yo'naltirishda asosiy vositadir.

Zamonaviy jamiyatda globallashuv jarayonlarining kuchayishi milliy qadriyatlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab qilmoqda. Chunki tashqi madaniy ta'sirlar ayrim hollarda milliy o'zlikni anglash jarayonini zaiflashtirishi mumkin. Shu bois, ayniqsa talaba yoshlari orasida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy ishlar olib borish, ularning tarixiy ildizlarini anglashga yo'naltirish, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash zarur. Bu esa o'z navbatida barqaror fuqarolik jamiyatining shakllanishiga, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligi va mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik nazariyalarda shaxs tarbiyasida qadriyatlar tizimining shakllanishi uzliksiz, bosqichma-bosqich rivojlanadigan murakkab jarayon sifatida qaraladi. Oliy ta'lim muassasalarida bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quv-tarbiya faoliyatida zamонавиу pedagogik yondashuvlar qo'llanishi dolzарб hisobланади. Jumladan, konstruktivistik ta'lim konsepsiysi asosida qurilgan interfaol darslar, "konstruktiv o'qituvchi – faol talaba" modeli, muammoli ta'lim, kasbiy simulyatsiya, integratsiyalashgan yondashuvlar orqali milliy qadriyatlarni talabalarga chuqur anglatish mumkin.

Shuningdek, milliy qadriyatlarni turli fanlar bilan bog'liq holda yoritish – masalan, tarix fanida xalqimizning qadimiy madaniyati, adabiyotda milliy obrazlar orqali estetik qadriyatlar, falsafa fanida ma'naviy-axloqiy tushunchalar orqali – talabalar dunyoqarashini shakllantiradi. Bu fanlararo yondashuv, milliy qadriyatlar masalasini ko'p qirrali o'rganish imkonini yaratadi. O'qituvchining didaktik mahorati, shaxsiy namunasi, kommunikativ uslubi va dars jarayoniga kreativlikni olib kirishi – talabalarda milliy o'zlikni anglashga zamin yaratadi.

Talaba shaxsini milliy qadriyatlar asosida shakllantirishda psixologik yondashuvlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu borada psixologik fanlarda e'tirof etilgan individual yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli, emotsiyonal intellekt (EQ), motivatsiya nazariyalari (Maslou, Xekhauz), identitet shakllanishi (E. Erikson) kabi konsepsiylar muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Emotsional intellekt – ya'ni shaxsning o'z his-tuyg'ularini tushunishi va boshqarishi, boshqalar hissiyotini anglash qobiliyati – milliy qadriyatlarni o'zlashtirishda muhim omil hisobланади. Talabalar orasida empatiya, ijtimoiy javobgarlik, madaniy bag'rikenglik, o'z-o'zini anglash va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali milliy qadriyatlarga ongli munosabat shakllantiriladi. Psixologik jihatdan qulay muhit – o'zaro hurmat, ishonch, ijobiy kommunikatsiya va konstruktiv fikr almashinushi orqali talabalarning qadriyatlarga bo'lgan munosabati barqarorlashadi.

Bundan tashqari, psixologik treninglar, rolli o'yinlar, o'z-o'zini anglashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar (refleksiya, "hayot yo'li" metodi va boshqalar) orqali talabalar milliy identitetni shakllantiradi.

Amaliy tadqiqotlar va kuzatuvlardan asosida aniqlanishicha, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlarni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarda sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, turli yo'nalishdagi oliygochlarda "Milliy g'oya asoslari", "Ma'naviyat asoslari", "O'zbek davlatchilik tarixi" kabi fanlar orqali milliy qadriyatlar tizimli tarzda o'rgatilmoqda. Talabalar orasida "Talaba-yoshlar festivali", "Ma'naviyat va ma'rifat oyligi", "Ochiq eshiklar kuni", "Tarixiy maskanlarga sayohatlar" kabi amaliy tadbirlar tashkil etilishi ularning faolligini oshirmoqda.

Ayni vaqtida ayrim oliygoхlar o‘z tajribasi asosida milliy qadriyatlarga oid o‘quv-modullar, elektron platformalar, mobil ilovalar ishlab chiqmoqda. Masalan, talabalar ishtirokida yaratilgan “Milliy qadriyatlar ensiklopediyasi” loyihasi, “Milliy liboslar dizayni” tanlovlari, “O‘zbekona turmush tarzi” mavzusida ese va videoroliklar tanlovi orqali yoshlar milliy merosga ijodiy yondashuvni namoyon etmoqda.

Bunday amaliy faoliyatlar nafaqat talabalarning ijtimoiy faolligini, balki ularning milliy identitetini mustahkamlashga, sog‘lom dunyoqarashga ega bo‘lgan, zamonaviy fikrlovchi, o‘z ildizlariga sadoqatli avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

**Xulosa:** Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy qadriyatlarni rivojlantirish masalasi hozirgi globallashuv davrida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlar shaxsni barkamol etib tarbiyalashda, ijtimoiy mas’uliyat, vatanparvarlik, tarixiy xotira va madaniy merosga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim omildir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning ongida milliy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlashda pedagogik-psixologik yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi

Zamonaviy ta’lim metodlari, interfaol yondashuvlar, fanlararo integratsiya va innovatsion texnologiyalar orqali milliy qadriyatlar talabalarga samarali tarzda yetkazilishi mumkin. Shu bilan birga, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, emotsiонаl intellektni rivojlantirish, ijobiy psixologik muhit yaratish orqali bu qadriyatlar chuqurroq va barqaror shakllanadi. Amaliy tajribalar esa shuni ko‘rsatmoqdaki, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, loyihaslar va ijodiy faoliyatlar talabalarni milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishga undamoqda.

Shu sababli, oliy ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmog‘i lozim. Bu esa o‘z navbatida, jamiyatda ma’naviy yuksalish, barqarorlik va madaniy merosning davomiyligini ta’minlaydi.

### **Foydalilanigan manbalar:**

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Abdullaeva N. “Talabalarda vatanparvarlikni shakllantirish metodikasi”. – T.: O‘qituvchi, 2019.
3. Rasulov B. “Milliy qadriyatlar va ma’naviy tarbiya”. – Samarqand, 2021.
4. Pedagogik psixologiya asoslari. Darslik. – T.: Innovatsiya, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2021-yil.